

Ko'pgina onlayn-xizmatlar aynan **SaaS**-yechimlarga to'g'ri keladi: elektron pochta xizmatlari, navigatorlar, ijtimoiy tarmoqlar, sayt konstruktorlari, CRM-tizimlar va boshqalar.

SaaS-xizmatlardan foydalanish litsenziya sotib olish, shaxsiy serverlarga xizmatlarni yuklash, tizim adminiga infrastrukturani yangilash va qo'llab-quvvatlash uchun to'lov qilish kabi majburiyatlardan xalos etadi. Buning o'rniga undan masofaviy foydalanish imkonini beradi (ba'zan pullik, ba'zan pulsiz). Biznes uchun bu arzon va qulay yechim bo'lib, ehtiyojingga to'g'ri keladigan namuna va tarifni tanlab, ixtiyoriy xizmatni o'rnatib olishingiz mumkin. Hozirda savdo, buxgalteriya hisobi, marketing kabi sohalarda SaaS-yechimlardan foydalanilyapti. Masalan, J'son & Partners Consulting [3] ga ko'ra Rossiya biznesining 80% SaaS-yechimlarni savdo-sotiq, xizmatlar va moliya sohasida qo'llayapti.

Yaqin yillarda bu sohadagi o'sish yuqori ko'rsatkichlarda bo'lishi kuzatilmoqda. Dunyodagi rivojlangan davlatlarning yirik kompaniyalaridan tortib, kichik tarmoq va tashkilotlari ham bulutli texnologiyalardan sun'iy intellekt tizimlari, aerokosmik tadqiqotlar, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya sohalari, itqisodiyotning barcha sohalari, logistika tizimlari, ta'lim tizimi, tibbiyot tizimi, barcha sohalar, hattoki taksi tizimlarida ham keng, unumli hamda maqsadli foydalanib rivojlanayotgan hozirgi global jamiyatda O'zbekiston ham ilm-fani va jamiyatining yetakchi sohalari bulutli texnologiyalarning yutuqlariga e'tibor qaratishi kelajakda yanada rivojlanib kelayotgan davlatlardan sezilarli darajada ortda qolib ketmasligiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Xodjimuratova Zuxra Zaynitdinovna. Ta'lim jarayonida "bulutli" texnologiyalardan foydalanish / "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishning muammo va yechimlari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.1. Sho'ba 2. Toshkent. 13-dekabr 2022,189-191-betlar

<https://blog.sibirix.ru/tech-clouds/>

https://json.tv/ict_telecom_analytics_view/otsenka-rynka-biznes-saas-v-rossii-perspektivy-perevoda-personala-na-udalennuyu-rabotu-20200317052302

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIYOTDAGI VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Sh.Y.Kurbanova, stajyor o'qituvchi
Oriental universitet

Bugungi kunda har bir sohada raqamli innovatsion texnologiyalardan foydalanilayotganligi, bu iste'molchilar uchun nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki sarflanayotgan vaqtning tejalishi kabi jihatlari bilan ham naf keltirayotganligi barchaga birdek ma'lum. Mazkur tendensiya moliya bozorini ham chetlab o'tmadi va amaliyotga moliyaviy texnologiyalar atamasi kirib keldi.

Moliyaviy texnologiyalarga iqtisodchi olimlar turlicha ta'rif beradilar.

Xususan, "Moliyaviy texnologiyalar yoki "FINTECH" – bu kompaniyalardan tashkil topgan soha bo'lib, moliyaviy xizmatlar bozorida an'anaviy moliya tashkilotlari

bilan raqobatlashish uchun texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanadilar¹⁴⁸”, - deya fikr bildiradi Phillipov D.I. A.Klevets fikricha “moliyaviy texnologiyalar – bu moliyaviy xizmatlar va kompaniyalarga biznesning moliyaviy aspektlarini boshqarishga yordam beradigan texnologiyalar¹⁴⁹”.

J.Kagan esa “moliyaviy texnologiyalar – moliyaviy xizmatlarni uzatish va avtomatlashtirishni yaxshilashga yo‘naltirilgan yangi texnologiyalardir” deya ta’kidlaydi.

Bundan tashqari moliyaviy texnologiyalar barcha moliyaviy xizmatlar (moliyaviy xizmatlar – bu pul muomalasi, pul aylanmasini amalga oshirishga yordam beradigan xizmatlar¹⁵⁰), jumladan: kreditlash, to‘lov tizimlari, pul o‘tkazmalari, jamg‘armalar, investitsiyalash, sug‘urtaning ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Mazkur xizmatlarda keng foydalanilishi hisobiga biznes-modellarining turli xil ko‘rinishlari amaliyotga joriy etilib, bank xizmatlarining mijozlarga yanada individual ravishda xizmat ko‘rsatishlariga imkon yaratmoqda. Ushbu moliyaviy xizmatlarni taqdim qiluvchi dasturiy mahsulotlar banklar kabi yirik moliyaviy tashkilotlar hamda kichik-kichik ixtisoslashtirilgan kompaniyalar (“Click” MCHJ, “Bank Apelsin” AJ kabi) tomonidan yaratilib moliya bozoriga yetkazib berilmoqda. Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish quyidagi raqamli infrastruktura orqali amalga oshiriladi.



1-rasm. Raqamli infrastruktura tarkibi¹⁵¹

Moliya bozoridagi raqamli strukturaning o‘zgarishi uning tarkibiy qismlariga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy maqsadlari¹⁵²:

- moliya bozorida raqobat muhitini ta’minlash;
- moliyaviy texnologiyalarning assortimenti, sifati va foydalanuvchilar uchun qulayligini oshirish;
- moliya sohasidaga xarajatlarni kamaytirish va risk darajasini pasaytirish;

¹⁴⁸ Филиппов, Д. И. (2018). О влиянии финансовых технологий на развитие финансового рынка. *Российское предпринимательство*, 19(5), 1437-1464.

¹⁴⁹ <https://finacademy.net/materials/article/fintech>

¹⁵⁰ Khahharovna, T. G., & Jumaboevich, M. T. (2022). Fintech Development in the Republic of Uzbekistan. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(1), 71-83.

¹⁵¹ Muallif ishlanmasi

¹⁵² Перцева, С. Ю. (2017). Финтех: механизм функционирования. *Инновации в менеджменте*, (2), 50-53.

- moliyaviy texnologiyalardan foydalanishda xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlash;

- texnologiyalarning raqobatbardoshligini oshirish;

- pul aylanmasini nazorat qilib turish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarni bir-bir ko'rib chiqamiz.

Ayni vaqtda bank xizmatlarini taklif etayotgan moliyaviy texnologiyalar soni 20 dan ortiqni tashkil etadi. Mazkur turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun startap loyiha tayyorlash va tegishli ruxsatnomaga ega bo'lish kifoya. Ya'ni moliyaviy texnologiyalar bozori shu bozorda o'z faoliyatini olib bormoqchi bo'lgan barchaga ochiq. Bu degani, boshqa raqobatchi kompaniya mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar hech qanday to'siqlariz o'z ish faoliyatlarini olib borishlari mumkin. Bu raqobat muhitini yaratishga va saqlab turishga imkoniyat yaratadi.

Ishlab chiqaruvchilar sonining ko'pligi, raqobat muhitining shakllanganli va bozorga kirish ochiqligi ishlab chiqaruvchidan texnologiyalar assortimentini ko'paytirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash hamda iste'molchilar uchun yanada qulay shartlarda amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Natijada esa, turli xildagi, qulay shartlardagi sifatli xizmatlar paydo bo'lmoqda.

Xarajatlar va risk darajasini pasaytirish. Moliyaviy texnologiyalarning eng katta afzalligi an'anaviy moliyaviy xizmatlarga qaraganda xarajatlar miqdorining kamligi hisoblanib kelingan. Shunga qaramasdan, "Hamkor mobile", "Marvarid" kabi moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi dasturiy mahsulotlar hali ham yanada arzon xizmatlar taklif etishda davom etib kelmoqda¹⁵³. Hozirgi kunda ushbu banklar tomonidan Humo va Uzcard plastik kartalariga foizsiz, tez va qulay pul o'tkazmalari amalga oshirilmoqda. Bir jihatga e'tibor berish zarur, ushbu foizsiz deya ta'rif berilayotgan pul o'tkazmalari hech qanday risklarsiz amalga oshirilmoqda. Mijoz o'tkazilgan mablag' to'g'risidagi ma'lumotni to'lov amalga oshgan vaqtidayoq olishi mumkin bo'ladi. Texnik sabablarga ko'ra xatolar yuz bersa, bu kamchiliklar bank xodimlari tomonidan bartaraf etilmoqda.

Moliyaviy texnologiyalardan foydalanuvchilar sonining ko'pligi xavfsizlikka alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Shu sababli xavfsizlikni ta'minlovchi qanday usullar amaliyotga joriy etilsa, moliyaviy texnologiyalarda ham shu usullardan foydalanilmoqda. Masalan, xavfsizlik uchun pin kodlardan foydalanish, identifikatsiya va autentifikatsiya, mijozlarning biometrik ma'lumotlari, bir martalik sms xabarlardan foydalanish va h.k. Bu ma'lumotlar har bir mijoz uchun unikal hisoblanganligi sababli, pulni yo'qotish, o'g'rilatish kabi holatlarni oldini olinmoqda va mijozlarning moliyaviy texnologiyalarga bo'lgan ishonchini yanada oshirmoqda.

Moliyaviy texnologiyalarning bir muhim jihati shundaki, moliyaviy texnologiyalardan foydalanilgan vaqtda pul aylanmasi to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni

¹⁵³ "Hamkor mobile" "Hamkorbank" ATB ning mobil ilovasi, "Marvarid" Mikrokreditbank ATB mobil ilovalari.

olish imkoni tug'ildi. Natijada, kelgusi davr uchun qilinadigan iqtisodiy prognozlarning yanada aniqlashishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari xufyona iqtisodiyotning avj olib ketishini oldini oladi.

Foydalanuvchilarning ijobiy fikri, xarajatlarning kamayishi, pul muomalasining tezlashishi moliyaviy texnologiyalarning kelgusida yanada rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Raqobat muhiti ta'minlanar, foydalanuvchilar ishonchi ortar ekan, fintech kompaniyalar yanada qulay, yanada past narxdagi ko'plab moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishda davom etib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Филиппов, Д. И. (2018). О влиянии финансовых технологий на развитие финансового рынка. Российское предпринимательство, 19(5), 1437-1464.

<https://finacademy.net/materials/article/fintech>

Khahharovna, T. G., & Jumaboevich, M. T. (2022). Fintech Development in the Republic of Uzbekistan. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(1), 71-83.

Перцева, С. Ю. (2017). Финтех: механизм функционирования. Инновации в менеджменте, (2), 50-53.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*N.Ashirov, bo'lim boshlig'i
"Ipoteka bank" AJ Yunusobod filiali*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar yurtimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish va jahon hamjamiyatda munosib o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, bugungi kunda bank tizimida olib borilayotgan aniq maqsadli islohotlar bank tizimining barqaror rivojlanishiga, kapitallashuv darajasi va investitsion jozibadorligini oshirishga zamin yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqdaki, bu o'z navbatida iqtisodiyotni jadal sur'atlarda rivojlantirishning drayveri sifatida shakllanib bormoqda. Banklarning investitsiyaviy jozibadorligi, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun bank sektorini transformatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 mayda PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi" tasdiqlanishi, bevosita bank tizimini isloh qilishni yangi bosqichga olib chiqdi. Joriy yil 1 yanvar holatiga respublikamiz xududidlar buylab Ipoteka bankning 39 ta filiali, 122 ta bank xizmatlari markazlari, 220 ta universal kassalari mavjud bulib, ular tomonidan 48 mingdan ortik faol xujalik yurituvchi subyektlarga va 1,7 mln.dan ortik aktiv chakana mijozlarga bank xizmatlari kursatib kelinmokda. Xususan, bank tizimida bank aktivlari 2022 yil yakunlari bo'yicha 44,2 trln. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 10,4 foizga, bank kapitali 5,9 trln. so'mni tashkil qilib, 16,3 foizga o'sdi. Bankning sof kredit portfeli 2023 yil 1